

XALQ ERTAKLARIDA RANGLARNING TASVIRIY VOSITA SIFATIDAGI AHAMIYATI

Nutfullayeva Ferangiz G'ayrat qizi

BuxDPI 7-O'TA guruh 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20600865>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ertaklarida ranglarning tasviriy vosita sifatidagi o'zni tahlil qilinadi. Oq, qora, qizil, yashil, ko'k va sariq ranglarning ramziy ma'nolari xalq ertaklari misolida yoritilgan. Ranglar orqali qahramonlarning xarakteri, voqealar ruhiyati va xalqning estetik qarashlari ifodalanganligi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot davomida o'zbek xalq ertaklari hamda jahon ertaklaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq ertaklari, rang ramzi, badiiy tasvir, folklor, oq rang, qora rang, sariq rang, ramziylik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль цветов как изобразительного средства в народных сказках. На примерах народных сказок раскрываются символические значения белого, чёрного, красного, зелёного, синего и жёлтого цветов.

Научно обосновано, что через цвета выражаются характеры героев, эмоциональная атмосфера событий и эстетические взгляды народа. В ходе исследования были приведены примеры из узбекских народных сказок, а также сказок народов мира.

Ключевые слова: народные сказки, символика цвета, художественное изображение, фольклор, белый цвет, чёрный цвет, жёлтый цвет, символизм.

Abstract. This article analyzes the role of colors as a figurative means in folk tales. The symbolic meanings of white, black, red, green, blue, and yellow colors are explained through examples from folk tales. It is scientifically substantiated that colors are used to express the characters of heroes, the emotional atmosphere of events, and the aesthetic views of the people.

During the research, examples from Uzbek folk tales as well as world folk tales were presented.

Keywords: folk tales, color symbolism, artistic depiction, folklore, white color, black color, yellow color, symbolism.

KIRISH

Xalq ertaklari xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ma'naviyati, urf-odatlari va dunyoqarashi mujassamdir. Ertaklarda badiiy tasvir vositalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ranglardan foydalanish orqali voqealar yanada jonli va ta'sirchan ifodalanadi.

Ranglar xalq tafakkurida ma'lum ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Shu sababli ertaklarda ranglar oddiy bezak emas, balki muhim poetik vosita sifatida qo'llanadi. Oqart rang poklikni, qora rang yovuzlikni, qizil rang jasoratni, yashil rang tabiatni, ko'k rang cheksizlikni, sariq rang esa ayrim hollarda boylik va quvonchni, ayrim hollarda esa hijron va xastalikni anglatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — xalq ertaklarida ranglarning badiiy va ramziy vazifasini ilmiy asosda tahlil qilishdir. Tadqiqot davomida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda folklorshunoslik metodlaridan foydalanildi.

O'zbek xalq ertaklari va ayrim jahon ertaklari matnlari tahlil qilinib, ulardagi rang tasvirlarining poetik vazifasi o'rganildi. Asosiy manba sifatida "O'zbek xalq ertaklari" to'plami, folklorshunos olimlarning ilmiy ishlari hamda bolalar adabiyotiga oid tadqiqotlardan foydalanildi.

Oq rangning tasviriy ahamiyati. Oq rang xalq ertaklarida poklik, ezgulik va halollik timsoli sifatida ishlatiladi. Oq rang bilan tasvirlangan qahramonlar odatda ijobiy obraz hisoblanadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad oppoq yuzli, ozoda va mehribon qiz sifatida tasvirlanadi. Oq rang orqali qahramonning ichki go‘zalligi ifodalangan. Shuningdek, ko‘plab ertaklarda “oq ot” obrazi uchraydi. Oq ot minib kelgan qahramon mard va jasur inson sifatida tasvirlanadi.

Oq rangning turli xil tasviriy hamda ramziy ma‘nolarda kelganligini ertaklar misolida tahlilga tortamiz. Masalan:” Bolalikni sog‘inib” ertagidan qizlar shohona kiyinishgan, sochlarini boshlariga tugib, oq parda bilan yuzlarini bekitishgan ekan. Qo‘llarida kamoncha, o‘q, nayza va qalqon ushlab, to‘rtta-to‘rtta bo‘lib, otlarini choptirib, daryo bo‘ylab sayohatga chiqib dilar...”. Bu yerda oq parda chiroyli, go‘zal qizlarning yuzlarini berkitish, ularning nafisligini, go‘zallik tarovatini yashirish maqsadida, or-nomusi, hayo, va pokligini ramziy tarzda ko‘rsatadi. Yuzni har qanday holatlardan himoyalash, begona nigohlardan saqlash sifatida tasvirlagan. Oq parda obrazida ham ijobiy, ham go‘zal va ma‘naviy ma‘no mujassam.

Yana bir boshqa ertakda oq rang boshqa ma‘noga ega. Masalan: “Ovchi, Ko‘kcha va Dono ertagida“, Qarg'a kaptarlarga bir xat yozib berishni Donodan so‘rabdi. Dono xursand bo‘lib xat yozib, uni qarg‘aning o‘ng oyog‘iga bog‘labdi. Qarg‘aga oq yo‘l tilab, hammalari uni kuzatishibdi. Qarg'a kaptarlarning makoniga kelib xatni beribdi. Bu ertakda oq yo‘l tilab degan jumlada oq rang quydagi ramziylikka ega: sihat-salomat, omon borib kelishligini, yo‘li bexatar bo‘lishligini duo qilib jo‘natgan. Yana bir ertakda oq rang ramziy ma‘noda emas, balki oziq -ovqat ma‘nosini ifodalab kelgan. Masalan: “Susambil ertagida“, Bir kuni tovuqlar qo‘shnisining hovlisida donlab yurganda, qo‘shnisining xotini uy obrezida oqishoq yuvib, qozonga solibdi. Obrezning chetiga besh-to‘rtta oqishoq to‘kilib qolibdi. Bu ertakda oq rangi bilan bog‘liq oqishoq so‘zi guruch ma‘nosini izohlab kelgan.

Qora rangning ramziy ma‘nosi. Qora rang ertaklarda yovuzlik, zulmat va qo‘rquv timsolidir. Ayniqsa, devlar, jodugarlar va salbiy obrazlar qora rang bilan bog‘liq tasvirlanadi.

Masalan, “Malikai Husnobod” ertagida yovuz kampir qora kiyimda tasvirlangan. Bu esa uning salbiy xarakterini ochib beradi. Bundan tashqari, “qora tun”, “qora o‘rmon” kabi tasvirlar ertakdagi xavfli vaziyatlarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bolalikni sog‘inib ertagida qora rang quydagicha tasvirlangan. Masalan: Podsho yigitga yanada qiyinroq ishni, „Daryoyi Qulzum“ning nariyog‘idagi bir jodugar qo‘riqlayotgan tulpor Qoraqaldirg‘ochni olib kelishni buyuradi. Yigit pari yordamida jasorat ko‘rsatib, tulporni qo‘lga kiritadi. Qoraqaldirg‘och ertaklarda afsonaviy, sehrli tulpor ot nomi sifatida qo‘llanadi. Bu ertakda aynan Qoraqaldirg‘och jodugar qo‘riqlayotgan noyob ot, qahramon uchun sinov vositasi, jasorat va mardlikni namoyon etuvchi ramz hisoblanadi.

Qoraqaldirg‘och majoziy ma‘noda ham tezlik, epchillik, erkinlik, omad belgisi sifatida ishlatiladi.

Qizil rangning badiiy xususiyatlari. Qizil rang xalq ertaklarida jasorat, muhabbat va hayot ramzi hisoblanadi. Masalan, “Qizil qalpoqcha” ertagida qahramonning qizil bosh kiyimi uning faol va jasur xarakterini ifodalaydi. Shu bilan birga, qizil rang ertakdagi xavf va ehtiyotkorlik g‘oyasini ham bildiradi. O‘zbek xalq ertaklarida qizil gullar, qizil olma yoki qizil liboslar quvonch va tantana timsoli sifatida qo‘llangan.

Yashil rangning poetik vazifasi. Yashil rang tabiat, yoshlik va umid ramzi hisoblanadi.

Masalan, “Susambil” ertagida yashil vodiylar va bog‘larning tasviri farovon hayot ramzi sifatida qo‘llangan. Yashil rang voqealarga osoyishtalik va go‘zallik bag‘ishlaydi.

Ko'plab ertaklarda qahramonning yashil bog'ga yetib borishi uning baxtga erishganini bildiradi. Bolalikni sog'inib ertagida yashil rang quydagicha izohlanadi. Masalan: Sizga bu ishda chinorga in qurgan, tabiatdagi qarindoshingiz — dono qush yordam beradi. Ammo buning uchun Siz qushning bolalarini yeb ketayotgan ajdahoni tosh bilan urib o'ldirishingiz kerak.

Ishonmayapsizmi? Qo'rqmang, qo'lingizga donishmand chol (ehtimol, u mangu tiriklik timsoli, tabiatday yashil libosli Hizrdir) bergan tosh. U oddiy emas, sehrli. Ana shu kichkina, lekin sehrli (ehtimol, lazer nuri taratuvchi) tosh har qanday yovuz ajdaholarni o'ldira oladi.

Ushbu jumlada yashil rang Xizr obrazi bilan bog'langan. Sharqona tasavvurlarda Xizr: mangu, hayot, yaxshilik, tabiat homiysi sifatida talqin qilinadi. Bu ertakda yashil rang hayot va tabiat bilan uyg'unlik, ezgulik, yangilanish, abadiylik timsoli hamda umid ramzi hisoblanadi.

Ko'k rangning ramziy ifodasi. Ko'k rang osmon, cheksizlik va mo'jiza timsoli hisoblanadi. Masalan, "Semurg' qush" haqidagi ertaklarda ko'k osmon va moviy qanotlar sehrli kuch va ulug'vorlikni ifodalaydi. Ko'k rang ertaklarda qahramonning orzu va maqsadlari bilan ham bog'liq holda tasvirlanadi.

Sariq rang xalq ertaklarida ikki xil ma'noda qo'llanadi. Birinchidan, u quyosh, boylik va oltin ramzi sifatida ishlatiladi. Ikkinchidan esa ayriliq, g'am yoki xastalik ma'nolarini ham ifodalashi mumkin. Masalan, ko'plab o'zbek xalq ertaklarida "sariq oltin", "oltin saroy" kabi tasvirlar boylik va baxt timsoli sifatida beriladi.

"Oltin tarvuz" ertagida sariq-oltin rang boylik va omad belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ayrim ertaklarda "sarg'aygan yuz" iborasi qayg'u yoki uzoq kutish holatini ifodalash uchun qo'llangan.

XULOSA: Xalq ertaklarida ranglar muhim tasviriy vosita sifatida xizmat qiladi. Oqart rang poklik va ezgulikni, qora rang yovuzlikni, qizil rang jasorat va muhabbatni, yashil rang tabiat va umidni, ko'k rang cheksizlik va mo'jizani, sariq rang esa boylik yoki ayriliqni ifodalaydi. Ranglar ertaklarning badii ta'sirchanligini oshirib, o'quvchi tasavvurini boyitadi. Shu sababli ranglar xalq ertaklarining poetik tizimida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek xalq ertaklari – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.
2. Musoqulov M.. "Folklor va badiiy tafakkur". – Toshkent, 2010.
3. Safarov O.. "Bolalar folklori va adabiyoti". – Toshkent, 2007.
4. Qizil qalpoqcha. – Jahon xalq ertaklari to'plami asosida.
5. "Malikai Husnobod" ertagi.
6. "Susambil" ertagi.
7. "Oltin tarvuz" ertagi.
8. "Bolalikni sog'inib"..... ertagi.
9. "Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagi.